komissiya yig‘ilishida talabaning ishtirokini ta’minlash talabaga tavsifnoma va akademik ta’til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag‘batlantirishi yoki jazolanishi turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tyutorlar talabalarni ta’lim olish jarayonida muhim ahamiyatga bugungi zamonaviy ta’lim tizimi tyutorlari o‘z kasbini yetuk mutaxasisi, bilimli va dunyoqarashi keng pedagoglardir. Ular talabalarga har tomonlama yaqindan yordam berib, to‘g‘ri yo‘naltirib jamiyat uchun yanada bilimli, salohiyatli kadr yetishishiga xizmat qilishmoqda. Bugungi kunda tyutorlar talabalarni turar-joy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar hamda besh tashabbus doirasida faoliyat olib boribgina qolmay, faoliyat yo‘nalishida tegishli bilimlarga ega bo‘lishini taqazo etmoqda. Talabalarga tanlov fanlarini tanlashda ham ko‘maklasha oladigan va kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlari uchun yo‘nalish bera oladigan mutaxassislar bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2021- yil 30-sentyabrdagi 412-son buyrug’iga 1-ilova “Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to’g’risida”gi nizom.
2. Omonov A. Tyutorlik - talabalar bilan ishlashda innovasion uslub. “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2022-yil 26-martdagi 61 (583) soni
3. Уринов Бахром Жамолиддинович. (2022). ВЛИЯНИЕ ИНТЕГРАЦИИ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ. https://doi.org/10.5281/zenodo.6553514
4. O‘rinova N. Tyutorlik faoliyatining shakllanishi, uning tarixiy va zamonaviy xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022. – 387-**b.**
5. https://tsue.uz/news

KORXONADA MAHSULOT SIFATINI YAXSHILASH VA SIFATGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

To‘xtayev Zayniddin Egamnazar o‘g‘li
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Korporativ boshqaruv kafedrasi
2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *To‘qimachilik korxonalarida mahsulotni tekshirish va tayyorlash.Mahsulotning hayot sikli, Texnik vazifa, Mahsulot sifatini oshirish, mahsulot sifatiga tasir etuvchi omillar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar:*Sifat,standartlashtirish,realizatsiya,Kompleks standartlashtirish, Texnik vazifa (TV), Mahsulotni tayyorlash, marketing sarf-xarajatlari.*

Аннотация: *Выделены контроль и подготовка продукции на текстильных предприятиях, жизненный цикл продукции, техническое задание, повышение качества продукции, факторы, влияющие на качество продукции.*

Ключевые слова: *Качество, стандартизация, внедрение, Комплексная стандартизация, Техническое задание (ТЗ), Подготовка продукции, затраты на маркетинг.*

Abstract: *The control and preparation of products at textile enterprises, the life cycle of products, technical specifications, improving product quality, and factors affecting product quality are highlighted.*

Key words: *Quality, standardization, implementation, Comprehensive standardization, Technical specifications (TS), Product preparation, marketing costs.*

Mahsulot sifatining zarur darajasini ta’minlash uchun mahsulotning “hayot” siklini davom ettirmoq zarurdir. ***Hayot sikli*** – bu yaratish jarayonining o‘zaro bog‘liqligi va mahsulotlar holatining uning ishlatilishi yoki ehtiyoj davri tugaguncha dastlabki talablarni shakllanishidan mahsulotlar holatining asta-sekinlik bilan o‘zgarib borishidir.

Hayot siklining birinchi darajasini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

-tekshirish va tayyorlash (ishlash);

-tayyorlash (yasash) va realizatsiya qilish (pullash) hamda muomalaga chiqarish;

– ekspluatatsiya qilish.

Hisoblab chiqilgan bosqichlarni etaplarga, jarayonlarga bo‘lish mumkin. Mahsulotlar sifatini bir xilda doimiy ta’minlash hayot siklida yuzaga keladigan ko‘p omillarga bog‘liqdir. Ularni quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

Mahsulotni tekshirish va tayyorlash. Bu bosqichning maqsadi – yangi mahsulot sifatiga perspektiv talablarning shakllanishi, konstruktorlik va boshqa turdagi texnik qarorlar hujjatlarini gavdalantirish, realizatsiyaning bu talablarini ko‘proq iqtisodiy yo‘llar bilan ta’minlash. Berilgan bosqichda sifat omillari mahsulot sifatining shakllanishida katta ro‘l o‘ynaydi.

Amerikalik mutaxassislarning baho berishicha, agar sifatni ta’minlashning hamma o‘lchamlarini 100 % deb qabul qilinsa, unda 75 % konstruktiv qarorga, loyihalash, maket va tajribali namuna asosida qayta ishlanishi, izlanishiga to‘g‘ri keladi; 20 % – ishlab chiqarish jarayoniga; 5 % esa – mahsulotni tamomila qabul qilishga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra sifat bo‘yicha ushbu Yevropa tashkilotining rad qilish (qaytarish) sabablarini baholashda, 70 % rad qilish loyihalash kamchiliklari tufayli; 20 % – sifatsiz ishlab chiqarish va 10 % – ekspluatatsiyaning buzilishini hisobga olgan holda yuzaga keladi, ya’ni “70-20-10” qoidasi mavjud.

Mahsulotni tayyorlash *GOST 15.001* “tayyorlash sistemasi va mahsulotlarini ishlab chiqarishga qo‘yish” bilan muvofiq holda quyidagilarni ko‘zda tutadi:

-texnik vazifalarni tayyorlash;

-texnik va normativ hujjatlarni tayyorlash;

-mahsulot namunalarini sinash va tayyorlash;

-tayyorlash natijalarini qabul qilish.


Texnik vazifa *(TV)* mahsulot tayyorlash uchun boshlang’ich asosiy hujjat bo‘lib hisoblanadi. Unda mahsulotga texnik-iqtisodiy talablar, qaytarish tartibi va tayyorlash natijalarini qabul qilish ko‘rib o‘tiladi.

TV talablariga standartga ziddiyatda bo‘lgan qo‘shimchalarga yo‘l qo‘yilmaydi. *TV* o‘z-o‘zidan bo‘lajak mahsulotning texnik darajasini garovga qo‘yadi. Mahsulotning muhim turlarini tayyorlashda *TV* sifat ko‘rsatkichini, muvofiq perspektiv darajani, ya’ni sifat darajasini, dunyo bozoridagi eng yaxshi analogik sifatni aniqlashi kerak. Berilgan ma’lumotlarga ko‘ra “sifat zaxirasi” mahsulotni ishlab chiqarishga chiqish vaqtigacha uni muvofiq eng yaxshi yo‘l bilan bir necha yil o‘rin egallab turishini ta’minlash bilan, mahsulotni o‘rganishga imkon beradi.

TV bozorning bo'lajak mollari marketing metodlarini oldindan o'rgangan bo'lishi zarurdir. G'arb korxonalarida ko'p hollarda marketing sarf-xarajatlari yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlashga sarflangan hamma xarajatlarning ko'proq yarmini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish haqida qabul qilingan qaror va bajarilgan ishni baholashni qabul qilish komissiyasi, ya'ni buyurtmachi vakili, tayyorlovchi va ishlab chiqaruvchilardan iborat bo'lgan komissiya o'tkazadi. Komissiya rahbari qilib buyurtmachi tayinlanadi, u yo'q bo'lgan holda asosiy haridor bo'lishi kerak.

1-rasm. Mahsulotni tayyorlashning umumiy sxemasi



Taqdim qilingan materiallarni ko'rib chiqish natijasida komissiya quyidagi aktni tuzadi:

-ishlab chiqarilgan mahsulotga qo'yilgan talab va mahsulotni ishlab chiqarish haqidagi tavsiyaga muvofiq ko'rsatma;

-mahsulotning texnik darajasini baholash natijalari;

-seriya (seriyali yoki ko'plab ishlab chiqarish)li ishlab chiqarish yoki uning hajmi haqidagi tavsiya;

-mahsulotlarning kam-ko'stini ishlash haqida taklif va mulohazalar (agar zarur bo'lsa);

-etalon namunasini tasdiqlash.

Mahsulot sifatini oshirish. Standartlashtirish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tipi va tiporazmerlari nomenklaturasini tartibga soladi. Seriyali va ommaviy ishlab chiqarishda odatda, konstruksiyasi, sifat ko'rsatkichlari, razmeri standartlashtirilgan mahsulotlarnigina ishlab chiqarishni tashkil etadi. Mahsulotga nisbatan standartlarning bekor qilinishi uni ishlab chiqarishdan olib tashlanganligini bildiradi. Kompleks standartlashtirish usuli agregatlashtirish prinsipini keng qo'llashga imkon beradi, xom ashyoga, materiallarga, komplektlovchi buyumlarga, texnologik jarayonga, dastgohlarga, o'lchov asboblariga va boshqa mahsulot sifatini ta'minlovchi ob'yektlarga nisbatan o'zaro bog'langan shartlarni qo'yadi.

Mahsulot sifatini oshirishga ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning yagona sistemasini, mahsulot sifatini attestatsiyadan o'tkazish va boshqarish sistemasini,

unifikatsiyalangan, markazlashgan holda tayyorlangan detal va uzellarni, shuningdek loyihalashtirish me’yorlarini qo‘llash mahsulot sifatini oshirishga imkon beradi. Standartlashtirish natijasida mahsulotlar nomenklaturasining qisqarishi ixtisoslashtirishning rivojlanishiga, korxonalarning tarmoqlar hamda tarmoqlararo kooperatsiyalashuvning chuqurlashuviga imkon beradi. Ixtisoslashgan korxonalardagi unifikatsiyalangan detallar va agregatlar yuqori unumdorli dastgohlar yordamida, yana aniq o‘lchov asboblaridan foydalanib mehnat unumdorligini oshirish hamda mahsulot sifatini yaxshilash mumkin. Ishlab chiqarishda iqtisod qilishni oshirish. Unifikatsiyalangan va standartlashtirilgan agregatlar va mashinalar elementlarini qo‘llash mehnat unumdorligini va ularni loyihalashtirish sifatini oshiradi. Bunda loyihalashtirish ishlariga ketadigan xarajatlar qisqaradi. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning yagona sistemasini joriy etilganda standart instrument va asboblardan foydalanish hisobiga ishlab chiqarishni tayyorlash muddati qisqarib, xarajatlar kamayadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, standartlashtirish mahsulot sifatini oshirishda yagona davlat tashkiliy texnikaviy siyosatini amalga oshirish imkonini beradi va mamlakatimiz iqtisodini boshqarishning ilmiy-uslubiy birligini ta’minlaydi. Korxona miqyosida standartlashtirish sifatni boshqarishda tarmoq hamda tarmoqlararo standartlashtirish bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Standartlashtirish tadqiqot va loyihalashtirish, mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo‘yish, muomala va sotish, iste’mol va ekspluatatsiya qilish bosqichlarida ham zarur. U mahsulot sifatini yaxshilab, korxona iqtisodini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.P.Ismatullayev,B.M.Axmedov,P.M.Matyakubova,X.Xamroqulov,Sh.A.Tura-yev. Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish.Toshkent-2014
2.N.Q.Yo‘ldashev, D.Yusupova. Sifat menejmenti o‘quv qo‘llanma. T-2019
3.Yusupova D.T. Standartlashtirish,sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish. O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2008
4. Zhamoliddinovich, Urinov B. "Strategic Priorities of the University." JournalNX, 2020, pp. 452-459.
5.Yo‘ldoshev N.Q.Yusupov S.SH. Menejment asoslari va biznes reja.Toshkent-2016.
6.Yusupova D.T. Badalova M.Mahsulot sifatini boshqarish.O‘quv qo‘llanma.T-2008.

BUGUNGI KUNDA SAYYORAMIZDAGI ASOSIY EKOLOGIK MUAMMOLAR

Abduraximov Bahtiyor Baxodirovich
Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Rejim xizmati boshlig'i

Annotatsiya: *Ushbu maqolada butun dunyoda yuzaga kelayotgan asosiy ekologik muammolar, ularni kelib chiqish sabablari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek ularni atrof-muhit va insonlar salomatligiga ta’siri o‘rganib chiqilgan. Muammolarni bartaraf etish va oldini olish bo‘yicha kerakli ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik muammolar, atrof-muhit, global isish, utilizatsiya, resurs, issiqxona, chiqindi.*

ОСНОВНЫЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ НА НАШЕЙ ПЛАНЕТЕ СЕГОДНЯ

Абдурахимов Бахтиёр Баходирович